



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyun*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 65-223-75-63*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 14 324 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 66 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 14 258 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 8 496,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,6 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 789,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 123,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 707,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 107,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,4 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	8 496,4	107,6
Buxoro shahri	3 573,4	108,4
Kogon shahri	236,0	102,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	231,3	106,4
Buxoro	516,2	104,7
Vobkent	232,8	104,7
G'ijduvon	1 326,5	110,6
Kogon	178,4	123,0
Qorako'l	615,4	102,3
Qorovulbozor	163,4	107,4
Peshku	242,2	108,7
Romitan	449,0	106,9
Jondor	393,0	106,1
Shofirkon	338,8	105,9

2024- yilning yanvar-iyun oyilarida 2023- yilning yanvar-iyun oylarga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (108,4 %), Kogon (123,0 %) va Peshku (108,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyun)



So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati **107,6 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 42,1 % bilan 3 573,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 1,9 % bilan 163,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-iyun oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 7 707,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 6,2 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,7 % ni tashkil etdi.

106,5	Jondor
106,6	Olot
107,2	Romitan
108,5	Peshku
111,1	G'ijduvon
225,9	Kogon


Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 23,7 % ga ko'paydi va 789,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,3 % ulushiga to'g'ri keldi.

95,2	G'ijduvon
97,2	Olot
98,6	Kogon
99,8	Qorovulbozor
108,8	Peshku
112,3	Buxoro
143,7	Buxoro sh.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,5 %), Qorovulbozor (99,5 %) va Romitan (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (14,1 %), Peshku (41,7 %) va Kogon (64,7 %) tumanlarida kuzatildi.

9,3 %



90,7 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Olot

2 208,8

Buxoro

2 882,1

Vobkent

1 560,3

G'ijduvon

4 098,1

Kogon

2 101,4

Qorako'l

3 571,6

Qorovulbozor

8 168,2

Peshku

1 841,5

Romitan

2 960,1

Jondor

2 111,8

Shofirkon

1 813,9

Buxoro sh.


12 072,2

Kogon sh.

3 636,7

2024- yilning yanvar-iyun oylar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 142,8 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (12 072,2 ming. so'm), Qorovulbozor (8 168,2 ming. so'm) va G'ijduvon (4 098,1 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyun), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	551,6	118,4
Buxoro shahri	142,3	127,4
Kogon shahri	7,3	112,5
Olot	15,4	160,8
Buxoro	18,2	142,9
Vobkent	59,2	132,3
G'ijduvon	151,5	105,1
Kogon	2,7	132,8
Qorako'l	100,1	105,0
Qorovulbozor	3,8	117,1
Peshku	14,8	144,8
Romitan	14,0	122,2
Jondor	12,6	209,6
Shofirkon	9,7	118,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyun)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mldr. so'm (2024- yil yanvar-iyun)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 107,9 mldr. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 115,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 551,6 mldr. so'mni (118,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 556,3 mldr so'mni tashkil etdi (112,5 %).

2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 551,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (233,5 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 556,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosи 478,1 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 74,1 mlrd. so'mni, otlar – 2,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosи hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 300,1 mlrd. so'm  53,9 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 105,6 mlrd. so'm  19,1 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 72,4 mlrd. so'm  13,0 %
Qo'yilar 55,6 mlrd. so'm  10,0 %	Otlar 2,7 mlrd. so'm  0,5 %	Echkilar 18,5 mlrd. so'm  3,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 0,8 mlrd. so'm  0,1 %	Tovuqlar 0,6 mlrd. so'm  0,1 %	Quyonlar 0 mlrd. so'm  0,0 %
Qushlar 0 mlrd. so'm  0,0%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 850 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	375,9	108,8
Buxoro shahri	231,5	107,5
Kogon shahri	6,3	104,6
<i>tumanlar:</i>		
Olot	5,1	108,1
Buxoro	15,8	125,6
Vobkent	23,5	105,1
G'ijduvon	19,8	107,0
Kogon	6,7	107,7
Qorako'l	10,0	106,1
Qorovulbozor	9,1	140,1
Peshku	5,7	125,8
Romitan	26,2	108,8
Jondor	8,5	106,3
Shofirkon	7,7	106,5

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 375,9 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	2 117,2	100,0
Buxoro shahri	1 293,9	61,1
Kogon shahri	4,7	0,2
<i>tumanlar:</i>		
Olot	12,2	0,6
Buxoro	24,7	1,2
Vobkent	262,0	12,4
G'ijduvon	246,5	11,6
Kogon	10,1	0,5
Qorako'l	15,7	0,7
Qorovulbozor	2,0	0,1
Peshku	9,8	0,5
Romitan	7,5	0,3
Jondor	218,3	10,3
Shofirkon	9,8	0,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (1 293,9 mlrd. so'm), Vobkent (262,0 mlrd. so'm) va G'ijduvon (246,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 117,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 286,6 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 102,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 830,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 140,0 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 007,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,2 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 4 149,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 69,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 2 565 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 33 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 532 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qorako'l (114,8 %) va Vobkent tumanlarida (145,3 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	6 007,0	108,2
Buxoro shahri	2 689,0	96,3
Kogon shahri	46,2	41,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	25,4	126,4
Buxoro	106,3	129,6
Vobkent	1 063,7	148,4
G'ijduvon	420,6	95,7
Kogon	455,0	112,2
Qorako'l	57,0	125,6
Qorovulbozor	27,5	128,6
Peshku	411,5	105,9
Romitan	373,9	129,2
Jondor	302,2	140,0
Shofirkon	28,7	128,5